

## **ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LUG'ATLARINING AHAMIYATI**

Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna

BuxDPI II bosqich talabasi.

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan samarali foydalanish tamoyillari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** til ta'limi, tilshunoslik, odob- axloq, o'rgatish, xizmat qilish, ularda onavatanga mehr-muhabbat, kishilarga g'amxo'rlik, mehribonlik, iltifotlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, vijdonlilik , ijobiy fazilat, tarbiya va hokazo.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, tilga munosabat mamlakat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha bo'ladi. Aniqrog'i, mamlakat taraqqiyotidagi har bir davr til ta'limi va tilshunoslik zimmasiga muayyan ijtimoiy vazifalarni yuklaydi. Xususan, mamlakatimizda o'tgan asrning boshlarida ona tili ta'limi oldiga ommani yoppasiga savodxon qilish talabi qo'yilgan bo'lsa, o'rtalariga kelib tilshunoslik oldida adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish, ona tili ta'limi zimmasiga esa fanning bu boradagi yutuqlarini amaliyotga joriy qilish va ommalashtirish vazifasi qo'yilgan edi. Bugungi kunda dunyo tilshunosligi, jumladan, o'zbek tilshunosligida tilni undan foydalanuvchilarning ruhiyati, ijtimoiy holati, jinsi, yoshi, nutq sharoiti va boshqa jihatlar bilan bog'liq holda o'rganish metodologiyasiga asoslangan antropotsentrik tilshunoslik va uning psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvomamlakatshunoslik, lingvokognitologiya, lingvodidaktika, lingvopedagogika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya kabi yo'nalishlariga e'tibor oshib bormoqda. Antropotsentrik tilshunoslikning asosida til egalarining undan amaliy foydalanish ko'nikmasini o'stirishga xizmat qiluvchi tadqiqotlar yotadi. Bunday tadqiqotlarning natijasi ko'p hollarda lug'at yaratish ishi bilan yakunlanadi.

Lug'atlar lingvistik adabiyotlar ichida tillararo munosabatlarni ta'minlash, tilning grammatik qurilishini tadqiq qilish, til me'yorlarini belgilash, jamiyat a'zolarining milliy tafakkuri, nutq boyligini o'stirish, ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishdagi bebaho xizmati bilan alohida ajralib turadi. Ijtimoiy tafakkurni yuksaltirishda lug'atlarning roli beqiyosligi jahon tajribasida o'zini to'la oqlagan haqiqat. Insonning mustaqil fikrlash, ong mahsulini to'g'ri va ravon bayon qilish qobiliyati, ijodiy tafakkurini o'stirish harakatlari, odatda, yoshligidan boshlanadi. Bunda ta'limiy vositalar sirasida lug'atlar alohida ahamiyat va maqomga ega.

O'quv lug'atlari, odatda, o'quv leksikografiyasining tadqiq ob'ekti hisoblanadi. O'rganish ob'ekti – o'quv lug'atining tafsifiy belgilari o'quv leksikografiyasining asosiy vazifalarini belgilab beradi. O'quv lug'atchiligi o'tgan asrning 70-yillarida leksikografiyaning alohida tarmog'i sifatida ajralib chiqdi va o'ziga xos nazariy asoslari, maqsadi va vazifalariga ega bo'lgan lingvometodik yo'nalish sifatida taniladi. L.G.Sayaxov ushbu yo'nalishning o'ziga

xos belgilari xususiga to‘xtalar ekan, “Uning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari, bir tomondan, o‘quv jarayoni – ta’limning umumiy maqsadi, ikkinchi tomondan – lingvistik maqsadlar, uning rivojlanish mantig‘i bilan belgilanadi”<sup>1</sup>, – deydi. Aslida ham o‘quv lug‘atchiligi taraqqiyoti faqat leksikografiyaning emas, lingvodidaktikaning ham taraqqiyotiga bog‘liq. SHu bois keyinchalik o‘quv lug‘atlariga lingvodidaktik vosita sifatida qarash an'anaga aylandi. Xusan, V.V.Morkovkinding mashhur “O‘quv leksikografiyasi maxsus lingvometodik yo‘nalish sifatida” deb nomlangan maqolasidan so‘ng o‘quv lug‘atlarining lingvistik va pedagogik, didaktik vazifalariga e’tibor qaratish ommalasha boshladi. O‘quv lug‘atiga berilgan ta’riflar ichida V.V.Morkovkinding ta’rifida hajm etakchi mezon sifatida olinmaydi, u lug‘atning maqsadi, lingvodidaktik xarakterga ega bo‘lishi, ya’ni ta’limga yo‘nalgan bo‘lishiga diqqatni qaratadi. Shunga asosan u o‘quv lug‘atchiligini alohida lingvometodik yo‘nalish, an’anaviy leksikografiya va lingvometodika fanlarining kesishmasida paydo bo‘lgan fan ekanini ta’kidlaydi. So‘nggi yillarda bajarilgan ishlarda o‘quv lug‘atlari leksikografiyaning alohida janri emas, shunchaki o‘quv jarayoniga ko‘proq kirib borgan ko‘rinishi mazmunidagi fikrlar ham uchraydi. E.YU.Balalaevaning “O‘quv lug‘atlarining umumiy va maxsus vazifalari” deb nomlangan maqolasida muallif o‘quv lug‘atlari masalasida tadqiqotchilar orasida qat’iy to‘xtam yo‘qligini ta’kidlaydi. U, jumladan, B.Bim-Badning o‘quv lug‘atlarining ta’limiy, ma’lumot berish va tizimlashtirish, shuningdek, boshqa barcha lug‘atlarga xos bo‘lgan axborot berish va me’yorlashtirish vazifalarini bajarishi, M.Laptevaning terminologik o‘quv izohli lug‘atlarning axborot berish, tizimlashtirish va mustaqil bilim berish kabi etakchi vazifalarni bajarishiga doir fikrlarini keltirib o‘tadi. E.YU.Balalaeva mazkur olimlarning mulohazalarini inkor etar ekan, M.Kovyazina, T.Petrashev, V.Tabanakovlar kabi bu borada P.N.Denisov fikrlariga qo‘shilishini va o‘quv lug‘atlarining to‘rtta – ta’limiy, tizimlashtirish, ma’lumot berish, me’yorlashtirish vazifalarini bajaruvchi minimal leksik tizim ekanligini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv lug‘atlari – borliqning lisoniy tasnifi, uning bilish shakliga solingan ko‘rinishi. O‘quv lug‘ati ta’lim oluvchiga ilk yoshlaridan boshlab olamning milliy lisoniy manzarasi bilan tanishish imkonini beradi. U davr maxsuli, davrning qiyofasini o‘zida aks ettiradigan ko‘zgu.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б. 2.H H Akhmadovich Khoja nasriddin afandi as people’s hero . AKADEMIA : AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11(2).1562.

<sup>1</sup> Саяхова Л.Г. Словари в культурологической концепции обучения языкам // Словарь в системе филологического образования: Материалы Всероссийской научно-практической конференции 26-27 октября 1999 г. / Отв. ред. Л.Г. Саяхова, Т.Н. Дорожкина. – Уфа, 2001. –С. 22-25.

2. T. Khoja o'g'li, K H Ahmadovich Advanced Characteristiks of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature. Amerikan Journal of Social and Humanitarian Research 3 (9).1-4.
3. K K Akhmadovich, NS Ubaydullayevna THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL INTEGRATIONS IN THE FORMATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADES. Conferencea, 66-75..
4. K K Akhmadovich, O B Togmurodovich NEW STAGES AND PRACTICAL CONDITIONS FOR CREATING NATIONAL TEXTBOOKS AND ALPHABET BOOKS. Conferencea, 54-58.
5. K K Akhmadovich, SG Badriddinnovna THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN'S READING E Conferencea, 28-33.
6. KK Akhmadovich, N O Alisherovna THE AESTHETIC VALUE OF LINGUISTIC FLORONYMS IN WORKS OF ART IN AROUSING LAUGHTER 59-63.
7. K K Akhmadovich, O B Togmurodovich THE ISSUE OF THE CONTENT OF EDUCATION IN THE HISTORY OF THE PEOPLES OF THE EAST Conferencea, 95-101.
8. K K Akhmadovich, S G Badriddinovna HISTORICAL GENESIS OF UZBEK CHILDREN'S READING, PRINCIPLES OF DEVELOPMENT AND AESTHETIC EXPRESSION OF NATIONALITY IN THEM E Conference Zone, 47-51.
9. K K Akhmadovich, N O Alisherovna THE PROBLEM OF AROUSING LAUGHTER IN UZBEK PROSE BASED ON LINGUISTIC FAUNIMS Conference 90-94.
10. Адизова Н., Ибрагимова Ф. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilimini baholashda pirls dasturi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 106-111.
11. Адизова Н., Мустафаева О. Noan'anaviy ta'lim texnologiyalari asosida sinfdan tashqari o 'qish mashg 'ulotlarini tashkil etish //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 4/S. – С. 344-349.
12. Adizova N. B., Ibragimova F. EFFECTIVE MEASURES FOR DEVELOPING THE PROCESS OF NATIONAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY //Open Access Repository. – 2022. – Т. 9. – №. 04. – С. 130-133.
13. Adizova N. B., Husenova D. TECHNOLOGICAL APPROACH TO THE ORGANIZATION OF PRIMARY EDUCATION FACTOR OF EDUCATIONAL EFFICIENCY //Open Access Repository. – 2022. – Т. 9. – №. 04. – С. 126-129.
14. Adizova N. B., Nusratova S. THE ESSENCE OF MODULE EDUCATION IN TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS TO INDEPENDENT THINK //Open Access Repository. – 2022. – Т. 9. – №. 04. – С. 134-137.
15. Adizova N. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA KREATIV FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK VOSITALARI: XORAZM MA'MUN

- AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.
- 16.Jumayev, Ruzokul. "Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
- 17.Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛАР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
- 18.Xoliqulovich J. R. SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o 'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 34-37..
- 19.Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Using anthropometric units in" Esdaliklar" by Sadriddin Ayniy." European Journal Of Innovation In Nonformal Education 2.2 (2022): 295-298.
- 20.Jumayev, Ruzokul. "SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO 'LLANISHI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).
- 21.Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ КҮЙИШ САНЪАТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2021).
- 22.Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Influence of Sadriddin Aini life and works in spiritual and moral development of students." Middle European Scientific Bulletin 11 (2021).
- 23.Jumayev, Ruzokul. "Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2020).
- 24.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
- 25.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
- 26.Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.